

Tong yulduzi



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



N: 41 (67310)
2020-yil 12-oktyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

SENGA OSMON OCHADI QUCHOQ

Nabiram Kumushga

Qodiriyning nurli izlarin,
Ko'zimizga sutmiz har choq.
Kumush bizning yuragimizga,
Yoqib ketdi o'chmas shamchiroq.

Kitoblarda olam bor, bolam,
Bolalikning nurli osmoni.
Kim o'zini unga do'st tutsa,
Egallaydi bir kun dunyoni.

Kumush bo'lib ulg'aygin, bolam,
Kitoblarim bo'lsin hamrohing.
Atrofingda hurlar bo'lib jam,
Yulduzlarni quchsin nigohing.

Senga osmon ochadi quchoq,
Quvonchlaring tutgay jahonni.
Men yoningda yuraman uyg'oq,
Gullatamiz O'zbekistonni!

AXTAMQULI





«Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ni 5-sinfdan buyon muntazam o'qib boraman. Unda ilk she'rim chop etilganda quvonchdan ko'zimga yosh kelgandi. Shu kunga qadar erishgan yutuqlarimning sababchisi ham aynan shu nashrdir».

Ushbu satrlar «Tong yulduzi» gazetasining 2018-yil 27-avgustdagi 35-sonida e'lon qilingan maqolamidan keltirildi. Oradan o'tgan yillar mobaynida qadrondan gazetam bilan bog'liq juda ko'p ajoyib xotiralarga ega bo'ldim. Bulardan biri «Onajonim tabiat» Respublika insholar

«TONG YULDUZI» BILAN 5-SINF DAN DO'STLASHGAN EDIM

Shu kunga qadar erishgan yutuqlarimning sababchisi ham aynan shu nashrdir.

va rasmlar tanlovida g'olib bo'lganim edi.

Kim bilsin, balki tahririyat xodimlarining mana shunday tanlovlari, yosh ijodkorlarga befarq bo'lmay, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlaganliklari, kezi kelganda o'z maslahatlarini ayamay, yoshlarga yo'l-yo'riq ko'sratganliklari qalbimda umid uchqunlarini alangalatib, jurnalistikaga qiziqishim ortishiga sababchi bo'lgandir.

Hayotimda qanday quvonchli voqeа sodir bo'lsa, qanday yutuqqa erishsam, uni albatta, sevimli gazetam bilan buni o'rtoqlashish menga odad bo'lib qolgan. Joriy yilning 25-sentyabr sanasi talabalik baxtiga musharraf bo'lgan ko'plab abituriyentlar qatori mening hayotimda ham unutilmas kun bo'lib qoldi. Chunki aynan shu – o'n sakkiz yoshni qarshilagan kunimda men O'zbekiston Jurnalistikada ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga Davlat granti asosida talabalikka tavsiya etilganligim haqidagi xushxabarni eshitdim. Shu kunlarda esa quvonchimning cheki yo'q. Bu yil test sinovlari pandemiya sharoiti bo'lishiga qaramay, shaffof va adolatlari tarzda

o'tgani uchun Prezidentimizdan minnatdor man. Qolaversa, ota-onam, yaqinlarim, meni ilm-u ma'rifatga boshlagan ustozlarimning ishonchini oqlaganimdan xursandman. Har qanday sharoitda ham ilm o'rganishdan, izlanishdan charchamagan inson, albatta, mehnatlari samarasini ko'rishiga o'zim misolimda amin bo'ldim.

Yuragimda orzularim qanot yozmoqda. Agar maqsadlarimni baland zinapoyaga qiyoslasak, men endigina birinchi pog'onasini muvaffaqiyatli bosib o'tdim. Hali zabit etishim kerak bo'lgan marralar talaygina va men bor bilimim, iqtidorimni ishga solib, albatta, keyingi pog'onalarini ham zabit etishga harakat qilaman. Kelajakda yanada ko'proq o'qib, izlanib, Vatanim ravnaqiga o'z hissamni qo'shaman.

*Laylo ESONMURODOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti axborot
xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar
yo'nalishi 1-kurs talabasi*



Maktabdan qaytayotgan bolalar ko'chaning boshidagi do'kondan kimyoviy unsurlardan tarkib topgan mahsulotlar «Flesh», «Lays» olib chiqishdi.

XULOSA CHIQARISH VAQTI KELMADIMIKAN?!

Hozirgi pandemiya sharoitida insonlarning immunitetini ko'tarish uchun tabiiy mahsulotlarni ko'proq iste'mol qilishlari zarurligi bot-bot uqtirilayotgan bir paytda foydasidan ko'ra zarari ko'proq bo'lgan yuqorida mahsulotlar sog'lom odamga ham salbiy ta'sir o'tkazishi, shubhasiz.

Buni qarangki, gap yana be-farqlik, e'tiborsizlikka borib taqalmoqda.

Bunday holatda aybdor kim: farzandiga yegulik sotib olishi uchun pul berayotgan ota-onami, bu mahsulotlarning zararli ekanligini o'quvchilariga tushuntirma-

gan ustozlarmi yoki ota-onasi, ustozlarining pand-u nasihatlariga qulq solmaydigan o'quvchimi? Bu savolga javob o'zingizdan.

Ko'z o'ngimizda sodir bo'la-yotgan ayrim ko'ngilsizliklardan kerakli xulosa chiqarish vaqt kelmadimikan? Aziz tengdosh, sizni kelajakda buyuk ishlar kutmoqda. Ota-onangiz va ustozlaringiz ishonchini oqlang.

*Odina A'ZAMQULOVA,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi*

Yurtboshimizning 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqini katta qiziqish bilan o'qib chiqdim.

BO'STON QAYDA EDI, USTOZ BO'LMASA...

Darhaqiqat, bizlarning qalbimizga ilm-fan ziyo-sini singdirib, komil inson qilib tarbiyalayotgan zahmatkash va oliyanob ustozlarimizga har qancha tahsinlar aytsak arziyi.

Ustozlar hayotdagi murabbiyimiz. Ustozlar bizni egzu maqsadlarimiz sari yetaklaydi. Shogirdlari yo'liga ziyo nurlarini sochishdan sira charchamaydi. Hayotimiz farovonligi, yorqin sahifalari muallim mehnati samarasidir. Ustozlarimizning bizlarga berayotgan bilimlari katta hayot yo'lida qoqilmasdan faqat va faqat ilgarilab borishimizga zamin yaratadi, desak, adashmaymiz. Ushbu mashaqqatli kasb egalari mehnati, chekkan zahmatlari xalqimiz, xususan, Davlatimiz rahbari tomonidan doimo e'tirof etiladi.

Chindan ham o'qituvchi nafaqat o'quvchilarga ziyo ulashadi, balki murg'ak qalblarga yaxshilik urug'ini ham sochadi. Ezgulik tomon yo'l ko'rsatadi. Hayot bog'imizning ilk bog'bonlari bo'lishadi. Ularning bergan bilimlari, ilm nurlari bilan o'z hayot yo'limizni yoritmasak, zulmat ko'chasida qolishimiz tayin. Zero, bilim bizni yuksak cho'qqilarga yetaklaydi.

Men Shohista Dadayeva, Muhiba Rajabova, Nodira Qambarova kabi ustozlarimni juda hurmat qilaman. Kelajakda jurnalist bo'lish orzum bor. Bu kasbning mohir ustasi bo'lish uchun ustozlarim o'gitlariga doimo amal qilayapman.

*Sadbarg SATTOROVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
283-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi, «She'riyat gulshani»
to'garagi a'zosi*





*Qayerdadir insoniyat doim qadr
tilanishi haqida o'qigandim.
Haqiqatan ham qilayotgan
ishi, mukammallikka, mansab
pillapoyalaridan doim yuqoriga
intilishi aslida, qadr tilanishidir.
Odamlar orasida o'z o'rnnini
mustahkamlab olishga yoki hech
bo'limganda, o'zini himoya
qilishga kirishi ham qadr
tilanishdir. Har bir insondagi
yaxshi yo yomon tuyg'ularning
bosh manbasi - «Qadr». Shu
o'rinda o'ylanasan kishi... zamon
individuallashib boryaptimi yoki
insoniyat? Nega bu tushunchani
ko'plab odamlar shaxsiylashtirib
olgan?*

Oting Nig'matxon emas, Nikolay bo'lsin...

Aslida, yillar mobaynida o'zbek xalqi ongiga singdirilgan «Vatan», «Millat», «Sarhad» obrazlari allaqachon ost miyada «o'z o'rni topilishi kerak» bo'lgan tushunchalar safidan joy olgan. Shuning uchun ham biz ularga «yuraklar qa'rida saqlanadigan muqaddas hilqat» sifatida qaraymiz. Lekin qadr haqida gap ketganda ana shu obrazlar qatorida bo'lishi kerak bo'lgan «millat tili» haqida unutamiz. Aslida, unutmaymiz, shunchaki «Xalq uchun ko'nkishga vaqt kerak», deymiz. Millatimiz tilini qadrlaymiz-u farzandlarimizni «zamonaviy» bo'lishlari uchun ta'lim o'zga millat tilida olib boriladigan maktablarda o'qitamiz. Binobarin, rus tarixchisi Shobelevning shunday fikri bor: «Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak».

O'zbek xalqining kuchliligi, ne-ne dovonlardan o'tib o'z ma'naviy boyliklarini saqlab qola olganligi bizga tarixdan ma'lum. Biz adabiyotini yuksaltira olgan avlodmiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, «proletariat dohiysi» aytgan mana bu so'zlardagi vahm ko'z oldimizga sobiq tuzum tarkibida toptalayotgan qadrimizni gavdalantiradi.

«Sani o'zbekcha otingni maskopliklar aytolmaydi. Shuning uchun oting Nig'matxon emas, Nikolay bo'lsin, Buxoriy emas, Buxorin bo'lsin».

Biroq, jadidlarimiz ma'naviyat uchun kurashgani, ularni «xalq dushmani» atab qamoqxonalarga tashlashgani haqida ham tarixiy misollar keltira olamiz. Yoki mahalliy tillarning qadri talab qilinib uyushtirilgan mitinglarda, so'zga chiqqan odamlar bir guruh olomon tomonidan toshbo'ron qilib o'dirilganligi haqida gapirishimiz

mumkin. Zero, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning «Yo'qotganlarim va topganlarim» asari orqali shunday xulosaga kelamiz: «O'zbek tili qadri yo'qolib borayotgan bir paytda Oybek millat ruhidagi asarlar yaratishdan, G'afur G'ulom o'z tilimizda «Shum bola»ni e'lon qilishdan, Hamid Olimjon esa vafotiga qadar bu tildagi asarlarga muharrirlik qilishdan charchamadi».

Shukurki, bugungi kunda, mustaqillikning «omon-omon» zamonlarida «xalq dushmani» so'zining tarjimasi «xalq farzandi»ga o'zgartirilib, ma'rifatimiz himoyachilar el-yurt ardog'iga sazovor bo'ldilar. Ammo «til» to'g'risidagi muammolarimiz hamonki davomiy...

Ma'lumotlarga ko'ra, internet tilining 81 foizi ingлиз tiliga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinish turidiki, dunyoda nafaqat o'zbek, balki boshqa davlat tillarida ham muammolar bor. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun bu tilda kamida bir million kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq, bunday tillar dunyoda atigi 250 taginadir. O'zbek tili ham mana shu ro'yxatda ekani quvonarli, albatta.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tilni qadrlash qadriyatlarimizni saqlab qolish, demakdir. Sportchilarimiz xalqaro maydonlarda g'oliblikni qo'lga kiritib, dunyo arenalarida o'zbek madhiyasini yangratganida, yuraklarimiz junbushga kelganidek, til mavzusiga ham o'ta ehtirosli va e'tiborli munosabatda bo'lishimiz shart! Zero, tilni yo'qotish o'zlikdan voz kechish bilan barobar. O'zlikdan voz kechgan shaxs esa boshqa bir millatning sig'indisidir!

E'zoza UMURZOQOVA,
Navoiy shahar,
12-AFCHO'UMning 11-sinf
o'quvchisi

Lesson 41

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

ARTICLES QUIZ

Circle the correct choice and fill in the blanks to complete the sentences.

1. _____ Abdullayevs are having a big family dinner tonight.
a) a b) an c) _____ d) the

2. _____ Rhodes is a nice island that is very close to Turkey.
a) a b) an c) _____ d) the

**MOON**

3. I would like to buy _____ new skirt for the party. Shall we go to the clothes shop?
a) a b) an c) _____ d) the

4. _____ Moon is a natural satellite.
a) a b) an c) _____ d) the


5. She wore _____ attractive dress for the meeting.
a) a b) an c) _____ d) the

6. We stayed at a nice hotel in _____ Navoiy Street.
a) a b) an c) _____ d) the

7. Oh! What _____ wonderful day! Shall we go for a picnic?
a) a b) an c) _____ d) the

8. Nodira is learning to play _____ violin.
a) a b) an c) _____ d) the

9. London is in _____ south east of the island of Great Britain.
a) a b) an c) _____ d) the



10. Most kids love making a snowman in _____ winter.
a) a b) an c) _____ d) the

FILL IN THE MISSING WORD**joining words****AND BUT OR**

1. My name is Bobur _____ my sister's name is Fatima.

2. I'm 22 years old _____ my birthday is on Tuesday.

3. I was born in Dubai _____ I live in Al Ain now.

4. I'm a doctor _____ I work in a hospital _____ I do not like my job.

5. My father is a police officer _____ he works at the police station.


6. My older sister works in a school _____ she likes it.

7. I do not eat fish, beef, _____ chicken.

8. My family travels to Oman _____ Saudi Arabia _____ they do not travel Yemen _____ Qatar.

9. I do not speak German _____ French _____ I speak a little Spanish.

10. I'm married _____ I live with my wife _____ our three kids.

**M. FAYZULLAYEV**

Qalbi his-hayajonlarga limmo-lim bo'lgan bolaligi haqida qog'oz qoralamagan ijodkor bo'lmasa kerak. Yetmishinchchi yillarda sobiq tuzumning qop-qora partalarida javobgar kishidek ilk bora harflarni hijjalab sa-boq olgan kunlarimiz bilan bog'liq bo'lgan xotiralarning poyoni yo'qdek tuyuladi. Qishi bilan chakki tomib, sira ilimaydigan sinfxo-namizda orzular og'ushiga g'arq bo'lganmiz. Ustozimiz Toshtemirovning jonini jabborga berib so'zlagan so'zlari bir umr qalbimizga muhrlangan.

SO'Z MINBARI SIZLARGA MUSHTOQ!

Erta bahordan kech kuzgacha ustoz Abdulla Orifning ta'biri bilan aytganda, paxta dalalariga sochilib ketgan o'quvchilarning arziholini tinglaydigan mard yo'q edi. Yodimda, o'shanda to'rtinchi sinfda o'qirdik. Noyabr oyining izg'irinli kunlari ship-shiydam dalaga so'nggi chanoqlarni terish ilinjida jalb qilinganmiz, yomg'irlardan shalabbo bo'lgan ust-boshimizni ko'rgan ustozimiz dala boshida olov yoqib, galma-gal qo'ichalarimizni ilitib olishimiz uchun imkon yaratgandi. Kutilmaganda paydo bo'lgan «kattakon»larning qop-qora mashinasini ko'rgan ustozning rangi paxtadek oqardi. O'shanda mashinadan tushgan «katta» shasht bilan ustozimiz yoqqan olovni oyog'i bilan tepkilarkan, dedi: – Biz bolalarni dalaga isitish uchun emas, paxta terish uchun chiqarganmiz. Siz bugungi qilgan ishingiz uchun kechqurun «shtab»da javob berasiz...

O'shanda bizning dono ustozimizning boshi egilgan edi. U kishi negadir «katta»ga biror o'qiz gap aytmadidi. Bizning esa ustozga rahmimiz keldi... Har kuni bolakaylarning sevimli minbari bo'lgan «Lenin uchquni» gazetasida bizning baxtli bolaligimiz haqida tinimsiz she'r-u maqolalar yangrardi.


Keling, yaxshisi 1974-yil 2-noyabr, shanba kuni chiqqan «Lenin uchquni» gazetasidagi «Biz ham kichik paxtakor» nomli maqolani birga o'qiylik: «Fotimaxon Po'latovani Farg'ona rayonidagi 49-maktab o'quvchilari hurmat bilan chevar terimchi, deyishadi. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, Fotimaxonning shu kungacha tergan paxtasi 3 tonnadan oshib ketdi. Shunday bo'lsa-da, kichik paxtakorning paxtazordan chiqqisi kelmaydi. Kolxzochi ota-onalarimizning mashaqqatli mehnatlari bilan yetishtirilgan «oq oltin»ning bir grammini ham nobud qilmay terib olsak, deydi».

Mana, sizga o'sha mudhish davning zug'umi! 2-noyabrgacha uch tonnadan oshiq paxta tergan o'quvchi qiz Fotimaxonning «daladan chiqqisi yo'q» emish. Uni daladan chiqishiga yo'l qo'yilmayapti, desa to'g'ri bo'ladi...

Bugunning o'quvchisi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Mening yuqoridagi aytgan so'zlarim ular uchun ertakka o'xshaydi. Farzandlarimiz bugun shohona davr-u zamonlarda yashayapti. Davlatimiz rahbari barcha e'tiborni yoshlarmizga qaratmoqda, Respublikada bir nechta ijod maktablari ochildi. Farzandlarimizning o'qib, ijod qilishiga hisobsiz sharoitlar yaratilgan. Ammo shunga qaramay, bugungi o'quvchi bu imkoniyatlardan

qanday foydalanyapti? Ularning qo'liga ijod minbari bo'lgan nashrlar yetib borayaptimi? Ustozlardan bu haqda so'raganimizda, ular yelkasini qisib gazetaga obuna bo'lish, uni o'qish majburiy emasligini aytishadi, Qiziq, majburiy ta'lif olish maskanida ilm olish o'quvchining burchi ekanligini nahotki unutib qo'yan bo'lsak? Davlatimiz rahbari barchani kitobxonlikka da'vat qilib turgan bir paytda, bu fikrni qanday izohlash mumkin? Har bir o'quvchining qo'lida qimmataho telefonlar borligi kishini o'yga toldiradi. Barcha xabar va ma'lumotlar telefonning ichida tiqilib yotibdi-ku, deyish mumkin. Ammo internet va telefonlardagi xom-xatala xabarlar hech qachon kitob va gazetalar o'rnini bosolmaydi. Kitob va gazetalarda har bir so'z yetti o'lchab kesiladi. U o'quvchini fikr-mulohaza qilishga undaydi. Telefon va internetdagi yengil-yelpi so'zlar esa shunchaki axborot vazifasini undovchi tezkor xabarlardir. Zero, erta bahordan dasasiga ketmonini ko'tarib borgan dehqonning maqsadi yerga urug' qadab, undan yuqori hosil olishdir. Ustoz va o'quvchilar maktabga, albatta, kitob va gazeta ko'tarib borishi kerak. O'quvchilar o'zlarining minbari bo'lgan «Tong yulduzi», «Klass» gazetalarini yoki «G'uncha», «Gulxan» jurnallarini o'qishi va unga o'z fikr-mulohazalarini bildirishi yoki ijodiy ishlari bilan yondashsa, buning nimasini yomon? Har kuni tahririyatimizga o'nlab ijodkorlar eshik qoqib kirib keladi. Ularning maqsadi o'zlarining yozgan qoralamalarini kimgadir ko'rsatib, to'g'ri yo'l so'rashdir. Biz so'z izmida yurgan ijodkorning so'zini qadrlaymiz. Negaki, ular borliqqa oshiq bo'lib, Vatan suratini chizishga uringan yosh qalamkashlardir. O'zim ham 8-sinfda o'qib yurgan kezlarim ilk she'rlarimni qog'ozga tushirganman. Ana o'shanday she'rlardan biri «Bodomginam» nomli she'rimdir. Surxonda bodomlar har yili qishning o'rtaida gullaydi. Ular ishonuvchan daraxt, quyosh charaqlab chiqsa bahor keldi, deb o'ylashadi. Bir kuni otam: – Buncha ishonuvchan bo'lmasa bu bodom daraxti... – deya uni kesib tashlashga qaror qildi. Men kesilgan bodom daraxtining holatidan qattiq ta'sirlanib, qo'limga qalam olib, quyidagi satrlarni yozgandim. O'shanda so'z yurakdan quyilib kelgandi.

*Kim seni qoldirdi zor bodomginam,
Gullading kelmay bahor bodomginam,
Boshlaringdan yog'di qor bodomginam,
Senga dunyo bo'ldi tor bodomginam.*



*Qaysidir bir bag'ritosh aldatdimu,
Qish etib husning talosh aldatdimu,
Oy bo'lib tunlar yuzingga mahliyo,
Rashkidan kuygan quyosh aldatdimu?!*

*Termulib husningga ko'plar aytdi so'z,
Nozlanib qiz va juvonlar aytdi so'z,
Buncha erta gulladi deb barcha ko'z,
Suqlanib boqqandi senga tegdi ko'z!*

*Sen uchun kuyib-yonay bodomginam,
Gullaringdan aylanay bodomginam,
Ko'ztumor ossam guling so'Imasmidi,
Men xato qildim netay bodomginam!*

deya, kuyinib she'r yozganman. Bugun o'ylasam, mening qalbimda tabiatga bo'lgan mehrni adabiyot uyg'otgan ekan. Hayotda birovlarning shirin so'ziga ishonib, noto'g'ri yo'llarga kirib borayotgan yoshlar qancha? Ularni mening bodomginamdan qayeri kam deb o'ylaysiz? Qalbida tabiatga nisbatan rahm-shafqat uyg'ongan kishi qo'lidan yomonlik qilish kelmaydi. Balki unday odamlar umrini Vatanni obod qilishga baxsh etadi...

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bundan ellik yil ilgari «Lenin uchquni» hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida «Xayrullaning komandasasi» nomli maqolasini yozib, yuzlab o'quvchilardan xatlar olib, behisob do'st ortirganini hanuzgacha eslaydi. Bas shunday ekan, 90 yildan ziyod bolalarimiz uchun ezgulik minbari bo'lib xizmat qilayotgan «Tong yulduzi» o'quvchilarning doimiy hamrohiga aylanishi kerak.

To'g'ri, bir paytlar turli tashkilotlar o'zlarining o'quvchiga aloqasi bo'limgan gazeta va jurnallarini maktablarga majburlab obuna qilishgani rost. Bugun u o'yinlarga chek qo'yildi. Majburiymas, degan ibora o'shanday nashrlarga nisbatan qo'llanilgan... Ammo, bu degani o'quvchi va ustozlar matbuotdan butunlay yuz o'girsin, degani emas. Bugungi tezkor davr-u zamonda ijodkor o'quvchi va murabbiylarning yo'liga hech narsa g'ov bo'lomaydi. Izlanuvchan ustoz va murabbiylar o'z shogirdlarini hamisha bilim ummoniga sho'ng'ib yashashiga undaydi.

Aziz o'quvchi! Sizning ham o'z minbarin-gizga chiqib aytadigan fikr-mulohazalaringiz yoki she'r va hikoyalaringiz bor bo'lsa, unda kitob va gazetalar dunyosiga doimiy hamroh bo'lganingiz ma'quil!



«TONG YULDUZI» DA HUQUQ DARSI

**TELEFONDAGI
SO'ZLASHUVLARNI, O'ZARO
XAT VA YOZISHMALARNI
TARQATISHDAN, ULARNI
OSHKOR QILISHDAN TIYILING!**

Aziz o'quvchilar, bilasizki, har birimiz kuniga kimlar bilandir telefonda so'zlashamiz, telegram va boshqa vositalar orqali xabarlashamiz. Ijtimoiy tarmoqlardan kelayotgan xabarlar-u suratlarning cheki yo'q. Ayrim hollarda bilib-bilmay kimlarningdir yozishmalarini o'qib qolamiz, ularning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib ketishiga sababchi bo'lib qolishimiz ham mumkin...



joylashtirmayman», dedi va tushuntirganim uchun menga minnatdorchilik bildirdi. Shu o'rinda, siz o'quvchilarga telefonagi so'zlashuvlarni, o'zaro xat va yozishmalarni tarqatishdan, ularni oshkor qilishdan tiyiling, demoqchimiz. Nega, deysizmi? Chunki ularni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatib yuborish jiddiy qonunbuzarlik hisoblanib, hattoki ijtimoiy xavfi jihatidan jinoyatga ham tenglashtiriladi.

– E'tibor bering, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46-moddasiga muvofiq, fuqaroga ma'nnaviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish, shu jumladan, yozishma va boshqa xabarlarini fuqaroga, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ma'nnaviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor etish...

– fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

– Jinoyat kodeksining 143-moddasiga binoan xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarları yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini qasddan buzish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa...

– bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Demoqchimizki, boshqa birov bilan bo'lib o'tgan telefon suhbatlari yoki o'zaro yozishmalar masalasida sergak bo'lish kerak, agar bunday ma'lumotlarni tarqatish yoki oshkor qilish o'sha shaxsning hayotiga, huquqlariga zarar keltirsa, unutmang, bunday harakatlar uchun jazo muqarrar!

Nodira NAZAROVA tayyorladi

YANGI BIR KUN

Kun yorishdi,
Uyg'ondim birdan.
Ko'zimga nur tushdi tepadan,
Kecha tunda men ko'rgan tushlar
Bir nur bo'lib porladi zimdan.
Hayotimning yana bir kuni
Bahor kabi gulga burkandi.
Hayajonda titraydi yurak,
Dilim shodlik tilab uyg'ondi.
Yashash asli bebaho ne'mat,
Zavqqa to'lib o'tar yoshligim.
Robbim menga ko'rsatgan himmat –
Ota-onam mening boyligim.
Kunni tunga ulab nogahon
Yangi kunni chorlayveraman.
Mayli, bo'lsin orzular armon,
Quyosh bo'lib porlayveraman!
Kun yorishdi,
Uyg'ondim mana,
Yangi bir kun boshlandi yana...

**Sabohat SAIDRIZO,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti harbiy
jurnalistika yo'nalishi talabasi**



TASVIR

Erinib sochadi zarrin nurlarin –
Ufqdan bosh ko'tarib quyosh bearmon.
Oltin chamanzorga aylanar zamin,
Yo'limga sochilar za'faron xazon.

Turnalar eslatar bolaligimni,
Mening-chun ucharlar solib arg'imchoq.
Shamollar – devona, izlaydi kimni,
Sog'inchim to'kilar misoli munchoq.

Yo'llarda miltirar tiniq ko'lmaklar,
O'tar ko'z o'ngimdan nuroni yasr...
Asrlar sirlarin so'ylar ertaklar,
Naqadar tilsimli bu ajib fasl?!

Ufqlarga tutashgan dalalar sokin,
Bag'rida diyorim oppoq jamoli.
Ona xalqim mehnat qilar olmay tin,
Dehqon timsolida yurtim iqboli.

Manzildan adashib kezar xayolim,
Kimandidir ranjigan telba shamolday.
Orzular ummonim to'lib limmo-lim,
Bo'laman men una tutqun butunlay.

Shivirlab yaproqlar vidolashmoqda,
Mudrab butun olam, xayoli bir yon,
Dunyo zar libosga belangan chog'da,
Unga maftun bo'ldi lojuvard osmon.

**Sevinch JO'RAQULOVA,
Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi
8-umumta'lim maktabining
10-sinf o'quvchisi**

(Davomi.
Boshi o'tgan sonda)

Dadam vaziyatni o'zgartirish maqsadi-da:

– Normamat tog'a, nima qilamiz? Keyingi bozor kelaqlamizmi?

– Voy bolam-ey, – dedi kampir birdan jonlanib, – ertalabdan beri sizlarga zotdor o'nta tovuq asrab turibman-ku. Mana, qaranglar. Albatta, yoqadi.

Kampir shunday deya qopidan tovuqlarni chiqarib ko'rsata boshladi.

Normamat tog'a tovuqlarni ko'rdi-yu, ko'zları quvnab ketdi.

– Balosan, pari, balosan! Tovuqlarni bizga asrab turganining yaxshi bo'pti. Yerga qo'ymaganning undan-da yaxshi, bo'lmasa infeksiya yuqardi.

Normamat tog'a tovuqlarni ko'zdan kechirarkan: – Mana buni tovuq desa bo'ladi. Oyog'idagi paypoqlari o'ziga yarashib turganini qara. Rangini chiroyliligini aytmaysanmi, rangini! Dunyodagi eng zotdor tovuqlar shular bo'ladi, Bahodir ukam, – deya tovuqlarni maqtay ketdi.

Tovuqlar Normamat tog'a aytgancha chiroyl edi. Dunyo – dunyo bo'lgandan beri bunday chiroyl tovuqlarni ko'rman edi. Mohipari kampir Normamat tog'anining gaplaridan iyib ketdimi yo o'zimi:

– O'nta tovuqqa mana bu xo'rozni ham qo'shib oling, – dedi. Dadam indamay turganini ko'rib: – Olaver, bolam, bu senga bonus. Ammo bilib qo'y, bu juda aqlli xo'roz. Gapigan gapingni tushunadi.

– Aqlli xo'roz ekan-da, – dedi Matrayim gapga suqilib.

– Nafaqat aqlli, balki ozoda hamda jasur xo'roz, – deya so'zini tamomladi kampir. U oxirgi gapini biroz g'urur bilan aytadi. Men o'sha vaqtida bu gaplarning ma'nosini yaxshi anglamagandim.

Dadam cho'ntaklarini kavlay boshladi.

– Men juda xafa bo'laman, bolam. Undan ko'ra Ra'no onanga menden salom ayt. Normamatning gaplariga andarmon bo'lib, sen bilan so'rashishni ham esimdan chiqaribman. Bu yog'i qarichilik, bolam... – dedi pari kampir biroz o'ksinib.

– Siz onamni taniysizmi? – dedi dadam hayratlanib.

– E... bolam-e, Ra'no onangi butun qishloq yaxshi taniydi. Bunaqa chirolyi, sho'x, shaddod, o'qimishli qiz qishloqda bo'lgagan, bolam. Onang childirma chalib o'lan, lapar aytganda maktabdagilar angrayib qolardi. Fanlar bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda-ku, onang doimo birinch o'rinni egallardi... Ha, aytgancha, onang maktabni «Oltin medal»ga bitirganini bilasanmi?

Dadam, men, Matrayim, Tam-tumboy IV bu gaplarni eshitib qotib qoldik. Bu gaplar, hatto dadam uchun ham yangilik edi.

Dadam pari kampir bilan ancha suhbatlashib qoldi...

ZOTLI TOVUQLAR

Nihoyat, Mohipari kampir bilan xayrashidik va tovuqlar solingen qafasni ko'tarib yo'iga tushdi. Normamat tog'a eshak aravasini bog'lab ketgan maxsus qoziqda eshak yo'q edi. Normamat tog'a bundan xafa bo'lindi, aksincha, aravamobilining oldidagi qizil rangli maxsus tugmani bosgan

– Namuncha hayallab qoldinglar? – dedilar biroz xavotirli ohanda.

– Bozorda zotdor tovuq qidirib vaqtimiz o'tdi, – dedi dadam.

– Bolalar qani? – so'radi buvim.

– Aravamobilda choy ichib o'tirishibdi, – dedi Normamat tog'a jilmayib.

– Yolg'onniyam boplaysan-da, Normamat. Bunaqa yolg'onlaringni Saltanatga ishlatsang laqqa tu-shadi. Oh, sho'rlik dugonam-a. Peshonasiga tuz bitmaganda, senga tegmasdi.

– Ishonmaysan-a, Ra'noxon?.. Dugonanga o'xshaysan. Bu xotin

– Hozir buvijon, hozir. Chiqing, mazasini siz ham ko'ring, – dedi Matrayim. – Ammo nomini zo'r topdingiz.

– Gapni aylantirmalaring, olgan tovuqlaring qani? – dedilar buvim sal jahl bilan.

– Obbo, bolalarni koyimagine-da, Ra'nobonu. Mayli, ular kabobni yeb olsin. Anu qafasni menga uzatlaring. Olgan tovuqlarimizni buving bir ko'rsin, – dedi Normamat tog'a vazminlik bilan. Tam-tumboy IV qafasni ko'tardi-da, aravamobildan pastga tushdi. Dadam uning qo'lidan qafasni oldilar-da, ustini ochib, oyoqlari bog'langan bir tovuqni olib buvimga ko'rsatdilar.

– Yaxshi. Mohiparining tovuqlari doim zotli bo'lgan, – dedilar buvim. Bu gapdan keyin Matrayim qo'lidi sixni tushirib yuborishiga sal qoldi.

– Siz tovuqlar uniki ekanligini qayerdan bildingiz? – dedim buvimga qarab.

– Eh-he, bolam-ey, – dedilar kulib buvim. – Mohiparining zotdor tovuqlarini hamma biladi. U yetishtirgan tovuqlar tanlovlarida bir necha bor birinchilikni olgan. Buvim dadam bilan Normamat tog'aga bir qarab oldilar. Men buvim maxfiy gap aytmoqchi ekanliklarini sezdim-da, darvozamiz yonidagi o'rindiqa buvimgi yetakladim. Buvim ohista gap boshladilar.

– Mohipari qishlog'imizdagi Abdurazzoq boyning qizi bo'lib, haddan ziyod go'zal edi. Taqdirning ishini qaraki, u Normamatning yaxshi ko'rар, lekin aytolmasdi. Bir kuni u o'zi yozgan bir she'rini o'qib berdi. Esimda shu satrlari qolgan, xolos:

*Nega shunday, zamonalardan
o'tar zamonga,
Yigitlarga muhabbatin
aytmoqlik qiyin.*

*Sevib qolsa, sir saqlamoq
kerak, albatta,
Borib aysts, hayron qolar
shunisi tayin.*

Abdurazzoq boy xalq dushmani sifatida oilasi bilan surgun qilindi. Tabiiyi, Mohim ham. Ular oqlanib kelganda esa, Normamat uylanib bo'lgandi. Mohipari boyning qizi emasmi, u o'sha paytdayoq tadbirkorlikni yo'iga qo'ygandi. Ayol boshi bilan zotli qoramol, parrandalarni yetishtira boshladi. Bu ishi uchun sudlandi, oqlandi, sudlandi. Mustaqillikdan so'ng to'liq oqlandi. Hozir hukumatning o'zi tadbirkorlarga yordam bermoqda. Mohim nabiralarining oyoqqa turishiga qarashmoqda. Afsuski, yoshlik oqar daryodek oqib ketdi. Ammo uning shirin xotiralari hamon yurakni ezadi.

– Normamat tog'a-chi? U bilmasmidi?

– Bilgan. Tan olishicha, uni o'zi ham yaxshi ko'rgan...

Bahrom AKBAROV,
bolalar yozuvchisi



(Sarguzasht qissa)

BIBIQ JONNING JASORATI

edi, aravamobil g'irillay boshladi. Bu quyosh batareyasi yordamida ishlayotgan arava ostidagi motoring tovushi edi.

– Eshak qurmagur shu bozorga kelishni yaxshi ko'radi. Bu yerda u o'rtoqlarini ko'radi. Ular bilan yayrab o'ynaydi. Kechki oqshom uyni o'zi topib boradi. Shuning uchun uni poylaganning foydasi yo'q, – dedi. Normamat tog'a pult yordamida eshikni ochdi-da:

– Chiqinglar, jujuqlarim, – dedi. U bu so'zni har doimgidek juda mehr bilan, samimi aytdi.

Normamat tog'a aravamobilning boshqaruva pultini ishga tushirdi va rulni to'g'rilab gazni bosgandi, motor shovqini eshitilmay qoldi.

– Ob-bo, – dedi Tam-tumboy IV. – Normamat tog'anining aravasi buzildi-yov...

– Aravamobil shu gapni kutib turgandek joyidan qo'zg'aldi.

– Yalqovboy amaki ham balo, – dedi iljayib Matrayim. – Shovqin yutgich ham o'rnatgan ekan.

Uch og'ayni bir-birimizga gap bermay, Yalqovboy amakini maqtay boshladik. Aravamobil bir zumda bizni uyga olib kelib qo'ydi.

Uyga yetib kelganimizda Ra'no buvim eshik oldida kutib turgan ekanlar.

zoti qachon eriga ishonadi o'zi? Mana, qara ishonmasang.

Normamat tog'a sharitta aravamobil eshigini ochdi-yu, anqayib qoldi. Sababi, biz qo'rada kabob pishirayotgan edik.

– Hah, zumrashalar, senlarning dastlaringdan hech narsa qolmaydi. Oldingi safar-ku, butun boshli tandir go'shtni paqqos urib ketuvdilaring.

Ra'no buvim ishonib, ishonmay biz o'tirgan arava ichiga qaradilar.

– Yo tavba, – dedilar yoqalarini ushlab, – bu aravang mo'jizaning o'zi-ku! Iya, buni qara, Diyorbek, bu haligi nimaydi-ya, oting qurg'ur.

– Bu ovqat pishiradigan plita-ku, buvijon.

– Yo'q, uning plitaligini sendanam yaxshi bilaman. Yonidagisini aytayapman.

– Qahva qaynatgichni aytayapsizmi?

– Buncha dono bo'limasang. kopemolkani bilmaymanmi? Yonida turibdi-ku.

– E... bumi, buvijon, – dedi Tam-tumboy IV gapga aralashib.

– Mikroto'lqinli pech.

– Ha, boyadan beri shuni aytayapman. Go'shtni o'shanda pishirsalaring bo'limasmidi? Kaboblar qachon pishadi bu temir taxtangda?..

(Davomi bor)

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

1. Noyob barmoq izlari bilan bir qatorda, barchamizda noyob til izlari mavjud.

2. Otlar va sigirlar tik turib uchaydilar.



3. Begemot odamga qaraganda tez yugura oladi.

4. Tuyaqushning ko'zi miyasidan kattaroqdir.

5. Kengurular orqaga qarab yuromaydilar.

6. Timsoh tilini chiqara olmaydi.

7. Insonning yuragi mushti bilan teng.

8. Yo'lbarsning terisi xuddi mo'yna kabi chiziqli.

9. Baqalar terisi orgali suv ichishadi.

10. Maymunlar xuddi odamlar singari keksayganida kal bo'lib qolishi mumkin.

11. Boyqushlar qovoqlarini harakatga keltira olmaydilar.

Internet manbalari asosida HUSAN tayyorladi



Aziz o'quvchilar, bu galgi testimiz sport haqida bo'lib, undagi futbol klublariga qaysi yillarda asos solinganligini qanchalik bilishingizni sinab ko'ramiz.

1. «Bunyodkor» futbol klubiga asos solingan yil qatorini aniqlang.

- A) 2005-yil;
- B) 2004-yil;
- C) 2003-yil;

2. «Lokomotiv» (Toshkent) futbol klubi tashkil topgan yil qaysi qatorda yashiringan?

- A) 2001-yil;
- B) 2002-yil;
- C) 2003-yil.

3. «Paxtakor» futbol klubini nechanchi yilda tashkil topgan?

- A) 1956-yil;
- B) 1985-yil;
- C) 1990-yil.

4. «Real Madrid» futbol klubiga asos solingan yil qatorini toping?

- A) 1900-yil;
- B) 1905-yil;
- C) 1902-yil.

5. «Barselona» futbol klubiga qaysi yilda asos solingan?

- A) 1819-yil;
- B) 1899-yil;
- C) 1885-yil.


6. «Liverpool» futbol klubini nechanchi yil tashkil topgan?

- A) 1876-yil;
- B) 1887-yil;
- C) 1892-yil.

ZUHRA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAK, BOSH QOTIR!

«F» HARFLI TOPQIRLIK MASHQLARI



Eniga: 5. Poytaxti Manila shahri hisoblanuvchi Osiyodagi Respublika. 6. Tarkibida asosan mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda ishlatalidigan cho'kindi tog' jinsi. 8. «Shohnoma» dostoni muallifi, sharq mumtoz shoiri. 10. Osmon gumbazi. 11. «Ikkinchili muallim» ta'rifini olgan o'rta asr qomusiy allomasi tavallud topgan shahar. 14. Biror hududga mansub hayvonot dunyosi. 17. 1845–1910-yillarda yashab ijod etgan Xiva xoni, mumtoz shoir va bastakor. 18. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining VI bobiga berilgan nom. 19. Dezinfeksiya

qilishda ishlatalidigan o'tkir hidli modda. 20. Afg'onistondagi shahar, Badaxshon viloyatining ma'muriy markazi.

Bo'yiga: 1. Birinchi o'zbek professori, yozuvchi, olim. 2. Yugurish sportining so'nggi bosqichi, marra. 3. Jizzax viloyatidagi tuman. 4. Yer yuzidagi eng ulkan jonivorni boquvchi va uning harakati paytida boshqaruvchi kishi. 7. Maqoldan: «...aziz, odobi undan aziz». 9. XX asr Amerika yozuvchisi, Nobel mukofoti laureati. 12. Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi doston qahramoni.

13. Eng ommalashgan sport o'yini. 15. O'zbekistonda bo'lgan otashin chek yozuvchisi, «Dor ostidagi so'z» kitobi mualifi. 16. Sport musobaqalarida g'olib aniqlanadigan so'nggi bahs.

TOPSHIRIQ: Shaklning o'rta qismidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi) krossvord javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi mutaxassis nomi ayon bo'ladi.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



Kuni kecha poytaxtimizdagi 110-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasi asosida chop etilgan boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun mo'ljallangan o'zbek tilining izohli lug'ati - «So'z sandiqchasi» kitobining tag'dimoti bo'lib o'tdi.



SO'Z SANDIG'I OCHILDI

Mazkur tadbirda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri Abdug'affor Qirg'izboyev hamda Uz FA O'zbek tili, adabiyoti va

folklyori instituti direktori filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudovlar qatnashdilar va so'zga chiqdilar. Suhbat o'qituvchilar bilan savol-javob tarzida mazmunli kechdi.

Ushbu izohli lug'atchada yetti yuz atrofida so'zlar jamlangan. So'z ma'nolari

bolalar adabiyoti, bolalar matbuoti va xalq og'zaki ijodi namunalaridan olin-gan misollar bilan boyitilgan. Bu go'yoki oltin to'la sandiqchadir. Axir hayotda moddiy boylikdan ko'ra ma'naviy boylik ustun emasmi?!

To'plamdagi so'zlarni tanlashda ularning bolalar nutqidagi faoliyat dara-

jasidan kelib chiqilgan.

«So'z sandiqchasi» deya nom olgan bolalar izohli lug'ati maktablarga hadya etildi.

O'quvchilar uchun yana-da qulay bo'lgan ushbu kitobcha ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini va mas'uliyatini yana-da oshirgan bo'lsa, ajab emas. Muhibi, yoshlardan bu kabi sharoit va imkonii-



yatlardan unumli foydalananishlariga tilakdoshmiz.

Husan TURSUNOV

KIM QANDAY KITOB O'QIDI?

Kitob mening eng qadrli do'stim. Har oqshom onam so'zlab bergen ezhulikni targ'ib etuvchi, yaxshilik bilan tugaydigan ertaklar, bog'cha opamiz o'qib bergen kitoblardagi hikoyalar yodimda.



Bu esa meni hayotda barchaga yaxshilik qilishga undaydi. Oradan yillar o'tib, maktabga bordim. Birinchi ustozimiz biz-larga ta'lif berish barobarida ko'p kitob o'qishimiz kerakligini uqtiradi, har hafta «Kim qanday kitob oqidi?» deya bizni savolga tutadi. O'qigan kitoblarimiz asosida savol-javob qiladi. Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchiga kitob sovg'a qiladi. Biz esa ko'proq kitob o'qib, ustozdan sovg'a – kitob olishga oshiqamiz.

Hozir o'zim ham mitti hikoyalar qoralayapman. Kelajakda bolalar yozuvchisi bo'lish, ular uchun qiziqarli asarlar yozishni niyat qilganman.

Behruzjon BAHRONOV,
Samarqand viloyati, Samarqand shahar
45-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi



Hulkaroy TURDIYEVA,
Andijon viloyati, Asaka tumanidagi
20-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70					
Tong yulduzi <i>Vatan yaponadir, Vatan qitadir!</i>	Bosh muharrir Feruza ADILOVA	TAHRIR HAY'ATI: Dilshod KENJAYEV, Alisher SA'DULLAYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALIOVA, Ashurali JO'RAYEV, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)	Navbatchi muharrir Axtamqul KARIMOV Rassom Feruzbek KAMOL o'g'li Sahifalovchi-dizayner Shaxobiddin MAXMADIYEV	«O'zbekiston» NMU bosma-sonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. www.tongyulduzi.uz e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz telegram: t.me/tongyulduz Adadi – 1677 Buyurtma – V 4357	Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar: Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqt – 18:00 Topshirildi – 18:00 Tel. /faks: (99871) 244-63-08
Muassis: <i>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi</i>					